



## ARTICLE INFO

Received: 25<sup>th</sup> September 2022

Accepted: 27<sup>th</sup> September 2022

Online: 30<sup>th</sup> September 2022

## KEY WORDS

adabiy kitobxonlik, mezon, ePIRLS, baholash daftari, matn, ball, mantiqiy tafakkur, fikrlash qobiliyati

Globalashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rne beqiyos. Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda, inson, uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug'vor. Shunday jarayonlarga keng qamrovli PIRLS dasturi o'zining samarali natijalarini bermoqda. Bu tadqiqotga boshqa davlatlarning qiziqishi ortib bormoqda va unda qatnashish istagini bildirib kelmoqda. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish darajasini baholaydigan keng qamrovli dastur hisoblanadi. Har bir tadqiqot avvalgi

## PIRLS XALQARO TADQIQOTIDA BAHOLASH MEZONLARI

Aziza Amonova Saydulloyevna

JDPU "Boshlang'ich ta'lim" fakulteti 3-bosqich talabasi

Tel: +998944837454

Email: amonova0929@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7152636>

## ABSTRACT

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda PIRLS tadqiqotining o'rne haqida fikrlar bildirilgan. Ta'lim sifatini baholashda muhim tizim hisoblangan PIRLS xalqaro baholash dasturining baholash mezonlari batafsil yoritib berilgan. O'qish savodxonligi yo'nalishi bo'yicha xorijiy davlatlar qatorida bo'lishimizdagi sa'y-harakatlar haqida aytib o'tilgan.*

tadqiqotlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan hamda muntazam ravishda har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotida umumiy o'zlashtirish shkalasi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligida ro'y beradigan o'zgarishlar haqida muntazam ravishda ma'lumot to'planadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA  
METODOLOGIYA

PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti qog'oz shaklidan raqamli shakliga o'ta boshladi va ishirokchi mamlakatlarning qariyb yarmi tadqiqotning raqamli shaklidan, qolgan yarmi esa an'anaviy qog'oz shaklidan foydalandi. Har ikkala baholash shakllari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash uchun, raqamli va qog'oz shaklidagi PIRLS dasturlarida o'qib tushunishga oid beriladigan matnlar va savollarning bir xilligiga e'tibor beriladi, ammo ePIRLS tadqiqotida qog'oz, an'anaviy shakldagi baholash jarayonida qo'llash mumkin bo'lmagan imkoniyatlar va topshiriqlar mavjud. PIRLS tadqiqotlarida darsda



o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Mazmuni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

O'quvchilarga ikki xil topshiriq beriladi:

1. Adabiy o'qish tajribasini o'rganish;
2. Axborotni ishlab chiqish va undan foydalanish.

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash. PIRLS o'rganish monitoringi bo'lganligi va uning asosiy vazifalaridan biri o'qish sifati dinamikasini o'rganish bo'lganligi sababli, o'qish uchun zarur shart bu har bir qismda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarning bir qismini qayta ishlatishdir.

Tadqiqot ishtirokchilarining o'quv va o'qishdagi yutuqlarini baholash o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarining muayyan darajalariga asoslangan holda maktab ta'limi sifatini baholash sohasidagi xalqaro ekspertlarning ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu darajalar ishda taklif qilingan matn bilan ishlashda turli murakkablikdagi o'quvchilarning o'quv faoliyatini tavsiflaydi. Aniq darajadagi mezonlar sizga bolalarning natijalarini statistik jihatdan alohida guruhlariga ajratish imkonini beradi, ularning tayyorgarligini o'qish savodxonligi jihatidan ma'lum darajani tavsiflovchi aniq vazifalar yordamida tasvirlash mumkin.

Bajarilgan ishlarni baholash tizimi sifatli va miqdoriy baholashni birlashtiradi.

PIRLSni baholash 1000 balli shkala bo'yicha amalga oshiriladi (asosan davlatlar natijalari 300 dan 700 ballgacha). O'rtacha qiymat - 500 ball, standart og'ish - 100 ball. Har bir topshiriq uchun topshiriqning qiyinligiga qarab ma'lum ball beriladi. Xalqaro ekspertlar o'qish savodxonligini badiiy va axborotli matnlarni o'qish sifatini va o'qish qobiliyatining individual guruhlarini baholash ko'lamiga muvofiq baholaydilar.

PIRLS tadqiqotlarida xalqaro miqyosda hammasi bo'lib, to'rtta daraja ko'rsatilgan:

1. Eng yuqori daraja 625 ball
2. Yuqori daraja 550 ball
3. O'rtacha daraja - 475 ballga
4. Past daraja - 400 ballga to'g'ri keladi

Mana shu darajalar orqali o'quvchilarning o'qish savodxonligi baholanadi. Ularning fikrlash qobiliyati, mantiqiy tafakkuri, ijodkorlik qobiliyati, mustaqil g'oyaga ega ekanligi qolaversa, matnni to'g'ri, tushunib o'qiy olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, to'rtta o'qib tushunish jarayonlari bor. Bular: tez o'qish, ongli o'qish, ifodali o'qish. O'qish savodxonligini baholash jarayonlarida bu tushunish jarayonlari asosida o'quvchining qay darajada salohiyatga ega ekanliklarini aniqlaydi. Bundan tashqari, dastur ichida baholash daftarlari ham beriladi. Moslashtirilgan baholash tartibi nisbatan yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan mamlakatlarda ko'proq murakkab baholash daftarlarini tarqatish va nisbatan pastroq o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan mamlakatlarda esa ko'proq oson baholash daftarlarini tarqatish orqali har bir ishtirokchi mamlakat o'quvchilarining qobiliyati va savollarning murakkablik darajasi



o'rtasidagi tafovutni muvofiqlashtiradi. Mos ravishda, yangicha baholash tartibi vaqt me'yorlari va mavjud tartiblariga imkoni boricha kam o'zgartirishlar kiritgan holda baholash natijalarida ko'proq ma'lumotlar qo'lga kiritiladi. Guruhlarga ajratilgan baholash tartibi savollarning murakkablik darajasi va mamlakatdagi o'quvchilarning qobiliyati o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lsada, agar ishtirokchi mamlakat o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichida sezilarli darajada farq qiladigan o'quvchilar qo'shimcha guruhlar aniqlansa, mazkur tartib mamlakat ichida ham joriy etilishi mumkin.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflar uchun PIRLS tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etadi. Bu dasturning muhim yo'nalishi hisoblangan o'qish savodxonligi o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, mantiqiy tafakkuri, erkin g'oyalar asosida

shakllanishiga muhim omil bo'lmoqda desam, mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchini bu dasturga tayyorlashda o'qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o'quvchi o'zi mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi qo'yilsa, har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o'zlashtirganligini unjng tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o'quvchining dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to'g'ri yoki noto'g'ri fikrini tinglab, to'g'ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o'rganib boradi. Baholash mezonida o'quvchi talab darajasida javob berilsa yetarlicha natijaga erishadilar. Ular bir vaqtni o'zida matnni tez, ifodali, ongli o'qiy olishlari kerak. Bu o'qish malakalari sifatleri bo'yicha yuqor malakaga erishib olsalar, xorijiy davlatlar qatorida turishga muvaffaq bo'lamiz.

## References:

1. PIRLS 2021 Baholash qamrov doirasi. Ina V.S. Mullis va Mechael O. Martin Toshkent-2021 UNESCO. (2012). International Standard Classification of Education ISCED 2011. 2. Retrieved from [uis.unesco.org/sites/default/files/documents/international-standard-classification-of-education-isced-2011-en.pdf](https://uis.unesco.org/sites/default/files/documents/international-standard-classification-of-education-isced-2011-en.pdf)
3. Foy, P., & Yin, L. (2017). Scaling the PIRLS 2016 Achievement Data. In M. O. Martin, I. V. S. Mullis, & M. Hooper (Eds.), *Methods and Procedures in PIRLS 2016* (pp. 12.1-12.38). Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center website: <https://timssandpirls.bc.edu/publications/pirls/2016-methods/chapter-12.html>
4. Roid, G. & Barram, R. (2004). *Essentials of Stanford-Binet Intelligence Scales (SB5) Assessment*. Hoboken, New Jersey: John Wiley & Sons, Inc.
5. Davier, M., Cho, Y., & Pan, T. (2019) Effects of Discontinue Rules on Psychometric Properties of Test Scores. *Psychometrika*, vol. 84, no. 1, 147-163. <https://doi.org/10.1007/s11336-018-09652-3>